**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

BOLTAYEV AZIZ KUZIYEVICH

DISKRET OPERATORLAR YORDAMIDA GILBERT FAZOLARIDA FUNKSIONALLARNI YAQINLASHTIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

UDK: 519.652, 519.644

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi a avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor (DSc) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

BOLTAYEV AZIZ KUZIYEVICH

DISKRET OPERATORLAR YORDAMIDA GILBERT FAZOLARIDA FUNKSIONALLARNI YAQINLASHTIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/FM300 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Shadimetov Xolmatvay Maxkambayevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Uteuliyev Niyetbay Uteuliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xudoyberganov Mirzoali O‘razaliyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Eshkuvatov Zaynidin Karimovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Rossiya Fanlar Akademiyasining Kabardin-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish Instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_________ 2025 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _______________ kuni tarqatildi.
(2025 yil «____» ___________ dagi _______ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan koʻplab tadqiqotlarning aksariyati amaliy masalalarni yechish bilan bogʻliq. Xususan, zilzilaning seysmogrammalarini hamda sintez qilingan gologrammalarini tahlil qilish, geofizika va sanoat muhandisligi kabi sohalarda interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi natural splaynlar hamda magnit va issiqlik maydonlarini simulyatsiya qilish, optik tizimlarni modellashtirish, iqtisodiy bashoratlarni tadqiq qilish, shaharsozlik muhandisligi kabi yoʻnalishlarda tadbigʻi keng boʻlgan optimal kubatur va kvadratur formulalarni qurish hamda ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan funksiyaning oʻzi va m – tartibli umumlashgan hosilasi yigʻindisi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosida koʻrsatkichli, trigonometrik va eksponensial – trigonometrik funksiyalarga aniq boʻladigan kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik natural splaynlar qurish hamda diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirishdan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda funksiyalarni yaqinlashtirish uchun interpolyatsion formulalar hamda splaynlar qurish, aniq integrallarni sonli hisoblash uchun optimal kubatur va kvadratur formulalar qurishga yoʻnaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olingan formulalar neft va gaz sanoatida, suyuqliklar va gazlar dinamikasida hamda iqtisodiy va moliyaviy bashoratlarda hosil boʻladigan matematik-fizika tenglamalarini taqribiy yechishda, sun’iy intelekt mashinalari oʻrganishidagi aktiv va yoʻqotish funksiyalarini yaqinlashtirishda keng qoʻllaniladi. Shu sababli, optimal kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik splaynlar qurish hamda ularning yaqinlashish tartibini baholash, diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega boʻlgan kompyuter tomografiyasi tasvirlarini qayta ishlash, iqtisodiyot faoliyatini takomillashtirish, axborot tizimlaridagi ma’lumotlarni bashoratlashda matematik usullarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2020 - 2023-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida matematika fanlari boʻyicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish, jumladan «Algebra, matematik hamda funksional analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4708-son qarori.

amalga oshirishda, jumladan, diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024 yil 14-oktyabr PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Splaynlar, interpolyatsion fomulalar, kvadratur va kubatur formulalar qurish hamda ularning yaqinlashish tartibini baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo‘limi S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasining Hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti (Rossiya), Ufa ilmiy markazining hisoblash markazli Matematika instituti (Rossiya), Sibir Federal, Novosibirsk, Sankt-Peterburg, Moskva davlat Universitetlari (Rossiya), Babeş-Bolyai University (Ruminiya), Mathematical institute of Serbian Academy of Sciences and Arts (Serbiya), North China University of Technology (Xitoy), Beijing Normal University (Xitoy), Korean Institute of Science and Technology (Janubiy Koreya), Korean Institute for Advanced Study (Janubiy Koreya), Fukui University (Yaponiya), University of Tokio (Yaponiya), University Putra Malaysia (Malayziya), University of Malaya (Malayziya), Stanford University (AQSH), University of Wisconsin–Medison (AQSH), Harvard University (AQSH), University of Calabria (Italiya), University of Padua (Italiya), Universita della Basilicata (Italiya), University of Satiago de Compostela (Ispaniya), Technische Universität Braunschweig (Germaniya), Institute of Mathematics of Jena University (Germaniya), Université Joseph Fourier (Fransiya), University of Oslo (Norvegiya), Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy Universiteti (Oʻzbekiston) da olib borilmoqda.

Splaynlar, interpolyatsion fomulalar, kvadratur va kubatur formulalar qurish hamda ularning yaqinlashish tartibini baholashga oid dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: splayn funksiyalar hamda interpolyatsion formulalar asosida turli interpolatsion va approksimatsion algoritmlar ishlab chiqilgan, ularning yaqinlashish tezligi matematik asosda baholangan hamda ularning amaliy tadbiqlarda qoʻllanish samaradorligi isbotlangan. Masalan, tibbiyot va kompyuter tomografiyasi sohasida Germaniya, AQSH va Yaponiyaning nufuzli ilmiy tadqiqot markazlari hamda oliy ta’lim muassasalarida tasvir segmentatsiyasi boʻyicha koʻplab ishlanmalar bor, sun’iy intellekt va mashinaviy oʻrganish sohasida Xitoy va AQSH universitetlarida kamroq xatoliklarlar bilan bashoratlash hamda neyron tarmoqlarda murakkab funksiyalarni tadqiq etish imkonini bergan, iqtisodiyot va statistik bashoratlash sohasida Italiya, Fransiya va Norvegiya universitetlarida dinamik model yaratish, risk tahlili va qaror qabul qilishda qoʻllanilgan, raqamli signalni qayta ishlash sohasida Rossiya, Xitoy va Koreyadagi nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarda tiniqroq ovoz yozish va sifatli video olish, siqilgan fayllarning sifatini yaxshilashga erishilgan; kvadratur va kubatur formulalar asosan murakkab matematik modellashtirishlarda va yuqori oʻlchovli integral masalalarini hal qilishda qoʻllaniladi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti, Ufa ilmiy markazining hisoblash markazli Matematika instituti, Sibir Federal Universiteti (Rossiya), University of Calabria, University of Padua (Italiya), University of Wisconsin–Madison (AQSH), muhandislik va texnologik jarayonlarni modellashtirishda Fukui University, University of Tokio (Yaponiya), Technische Universität Braunschweig, Institute of Mathematics of Jena University (Germaniya), North China University of Technology, Beijing Normal University (Xitoy), statistik tahlil va bashoratlashda University of Satiago de Compostela (Ispaniya), Université Joseph Fourier (Fransiya), University Putra Malaysia, University of Malaya (Malayziya), sun’iy intelekt va mashinaviy oʻrganishda Korean Institute of Science and Technology, Korean Institute for Advanced Study (Janubiy Koreya), Stanford University, Harvard University (AQSH), iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar sohasida modellashtirishda hamda prognozlashda University of Oslo (Norvegiya), Babeş-Bolyai University (Ruminiya), Mathematical institute of Serbian Academy of Sciences and Arts (Serbiya), ta’lim va ilmiy tadqiqot sohalarida Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy Universiteti (Oʻzbekiston) larda olib borilmoqda.

Dunyoda interpolyatsion va kvadratur formulalarini, shuningdek, natural splaynllarni qurish va ularni amaliyotga tatbiq etish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda, bu tadqiqotlarda diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirish, ularning samaradorligini oshirish maqsadida yangi algoritmlar ishlab chiqish, xatolik funksionallarini hisoblash, shuningdek, optimal koeffitsiyentlarni topish uchun Lagranj aniqmas koʻpaytuvchilar usulidan foydalanib Viner – Xopf tipidagi sistemani olish, ushbu sistema yechimi mavjud va yagonaligini isbotlash, optimal koeffitsiyentlarning oshkor koʻrinishini topish uchun yuqori tartibli differensial operatorlarning diskret analogini qurish, hamda yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik splaynlar qurish, koʻrsatkichli va trigonometrik funksiyalarga aniq boʻladigan interpolyatsion va kvadratur formulalar qurish hamda ularning yaqinlashish tartibini baholash kabi ustuvor yoʻnalishlar oʻrganilmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Splayn funksiyalari va interpolyatsiya formulalari zamonaviy hisoblash matematikasining stoxastik differensial tenglamalar va funksional analiz masalalarini sonli yechish uchun eng muhim vositalaridan biridir. Splayn nazariyasining asoschisi J. Schoenberg birinchi boʻlib tekislangan interpolyatsiyalarni qurish uchun boʻlakli koʻphadlardan foydalanishni taklif qilgan. Splaynlarni yaqinlashtirishning sonli usullarini ishlab chiqishga K. De Boor katta hissa qoʻshgan. N. Dyn splaynlarga asoslangan rekursiv algoritmlarni ishlab chiqdi va koʻp oʻzgaruvchili splayn interpolyatsiyasi usullarini oʻrgandi. M. Unser splaynlar va toʻlqinlar tahlili oʻrtasidagi bogʻliqlikni va ularni tibbiy tasvirni qayta ishlashda (masalan, MRT va KT) qoʻllashni oʻrgandi. B. Rozenberg, M. Lapeyre va Jan-Klod Rosh kompyuter grafikasida silliq egri chiziqlar va 3D modellarni yaratishda splaynlardan faol foydalandilar. Xususan, B-splaynlarni ishlab chiqish va ularni sanoat dizaynida, muhandislik vizualizatsiyasida qoʻllashda sezilarli yutuqlarga erishishdi. L. Veymin, Ch. Yunji va X. Feng geografik axborot tizimlari (GIS), muhandislik hisoblari, modellashtirish va qishloq xoʻjaligi texnologiyalarida splayn funksiyalarini qoʻllaydilar. T. Shiraishi, Y. Takaxashi va Y. Isakava splaynlar yordamida animatsiyani yaxshilash usullarini ishlab chiqdilar.

Integral va karrali integrallarni taqribiy hisoblash uchun kvadratur va kubatur formulalarini qurish masalasi hisoblash nazariyasining muhim masalalaridan biridir. Ushbu muammoni hal qilish ustida koʻplab mashhur matematiklar ishlagan, masalan, S.L. Sobolev optimal koeffitsiyentlar uchun analitik ifodasini topishda foydalaniladigan optimal kvadratur va kubatur formulalarini qurishning yangi algoritmini ishlab chiqdi va ularni murakkab tizimlar va muhandislikda qoʻlladi. M. Hammerlin va J. Stöhr differensial tenglamalar va optimallashtirish masalalarini sonli yechish uchun kvadratur formulalarini takomillashtirish ustida faol ishladilar. Ular murakkab masalalarni hal qilishda yuqori aniqlikka erishishga imkon beruvchi moslashuvchan tugunlar va koeffitsiyentlarni optimallashtirishga asoslangan usullarni taklif qildilar. R.P.Brent va S.B. Molerning ishlarida yangi raqamli algoritmlar ishlab chiqildi, bu esa kvadratur formulalarining aniqligi va tezligini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Shuningdek, ular turli

amaliy masalalarni hal qilish uchun ushbu usullarni optimallashtirish ustida ishladilar.
F. Basso va M. Benassi kvadratur formulalarining matematik nazariyasini ishlab chiqish, shuningdek ularni sonli hisob-kitoblarda va fizik jarayonlarni modellashtirishda qo‘llash bilan shug‘ullangan. Ular ko‘p o‘lchovli fazolarda integrallarning aniq yechimini osonlashtiradigan ko‘p tugunli to‘rlardan foydalangan holda kubatur formulalarini qurish usullarini taklif qildilar. G.V. Milovanović va D. Yovanović sanoat jarayonlari va matematik-fizik masalalarni modellashtirishda faol foydalaniladigan kvadratur va kubatur formulalarini optimallashtirishning yangi yondashuvlarini taklif qildilar. Ular moslashuvchan ko‘p tugunli to‘rlar algoritmlarini qo‘llash orqali xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan usullarni ishlab chiqdilar. X.K. Li va J.H. Kim robototexnika va kompyuter grafikasidagi muammolarni hal qilish uchun kvadratur formulalarini qo‘llash orqali robot harakatini optimallashtirish va animatsiyani yaxshilash uchun yangi usullarni ishlab chiqdilar. Ular optimal trayektoriyalarni aniqlash va robot harakatini hisoblashdagi xatoliklarni minimallashtirish, shuningdek, raqamli modellarda animatsiya sifatini yaxshilash uchun moslashuv usullaridan foydalanganlar.

S.L. Sobolev, I.P. Mysovskix, V.I. Lebedev, G.N. Salixov, M.I. Isroilov va E.A. Shamsiev sferada kubatur formulalarini qurganlar. Funksional fazolarda taqribiy integrallashni optimallashtirish bilan S.L. Sobolev, S.M. Nikolskiy, A. Sard, N.P. Korneychuk, A.A. Zhensykbaev va boshqalar shug’ullanganlar. Interpolyatsion splayn funksiyalari bo‘yicha muhim natijalar I.Schoenberg, P. Holliday, K. de Boor, J. Ahlberg, E. Nilsson, Walsh, P. Laurent, S. Stechkin, Yu. Subbotin, Yu. Zavyalov, V. Miroshnichenko, M. Ignatyev va A. Pevniy ishlarida olingan. Shuni ta‘kidlash kerakki, funksional fazolarda optimal interpolyatsion, kvadratur, kubatur va ayirmali formulalarini qurishda X.M. Shadimetov, A.R. Hayotov, F.A.Nuraliyev, S.A.Baxramov, O.X. G‘ulomov, N.Mamatova, S.S.A’zamov, D.M.Axmedov, S.S.Babayev, R.N.Mirzaqobilov yangi optimal algoritmlarni ishlab chiqishgan. Nochiziqli parabolik, giperbolik tenglamalar va sistemalarning taqribiy yechimi uchun M.M. Aripov, R.D. Aloev, D. Utebayev, Ch.B. Normurodov, Z.R. Rahmonov, M.U. Xudoyberganov va boshqalar yangi asimptotik usullarni ishlab chiqdilar va turli xil ayirmali sxemalarining turg‘unligini isbotladilar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining “Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral tenglamalarni yechishga tatbiqlari” mavzusidagi kalendar reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Gilbert fazosida ko‘rsatkichli-trigonometrik funksiyalarga aniq bo‘lgan natural splaynlar, optimal interpolyatsion va kvadratur formulalarni qurish, ularning xatolik funksionali normasini hisoblashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

funksiyaning o'zi va uning m – tartibli umumlashgan hosilasi yig'indisi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosida interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalari xatoliklarining yuqori baholarini topish;

fiksirlangan tugunlarda olingan yuqori baholarni koeffitsiyentlar orqali minimallashtirib interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarining optimal koeffitsiyentlarini topish uchun chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini olish;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalar bo'yicha olingan sistemalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

interpolyatsion, kvadrat formulalar va splayn funksiyalarning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun $D_m[\beta]$ diskret operatorlarini qurish;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarining optimal koeffitsiyentlari analitik ifodalarini topish;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarning optimal normalarini hisoblash.

Tadqiqotning ob'yekti natural splaynlar, interpolyatsion va kvadratur formulalar, yuqori tartibli differensial operatorlarning diskret analogi, xatolik funksionallari va Gilbert fazolaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti ekstremal funksiyalar, ko'rsatkichli-trigonometrik funksiyalarga aniq bo'lgan natural splaynlar, optimal interpolyatsion va kvadratur formulalar, $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}-1\left(m-\text{toq}\right)$ va $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}+2\frac{d^{m}}{dx^{m}}+1\left(m-\text{juft}\right)$ differensial operatorlarning diskret analoglari, $W_2^{(m,0)}\left(0,1\right)$ Gilbert fazosidan olingan funksiyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, hamda differensial tenglamalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

funksiyaning o'zi va uning m – tartibli umumlashgan hosilasi yig'indisi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosida interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalari xatoliklarining yuqori baholari uning ekstremal funksiyalari yordamida topilgan;

fiksirlangan tugunlarda olingan yuqori baholarni koeffitsiyentlar orqali minimallashtirib interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarining optimal koeffitsiyentlariga nisbatan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi olingan;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalar bo'yicha olingan sistemalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligi uning asosiy matritsasining xosmasligi orqali isbotlangan;

interpolyatsion, kvadratur formulalar va splayn funksiyalarning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun Furye almashtirishlari va qoldiqlar nazariyasiga tegishli formulalardan foydalanib $D_m[\beta]$ diskret operatorlari qurilgan;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarining optimal koeffitsiyentlarining analitik ifodalari diskret operatorlar yordamida topilgan;

interpolyatsion, kvadratur formulalari va splayn funksiyalarning optimal normalari koeffitsiyentlardan foydalanib hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilgan optimal kvadratur formulalar yordamida murakkab tizimlarda hosil boʻladigan dinamik jarayonlarning matematik modellari qurilgan;

qurilgan kvadratur formulalarning optimal koeffitsiyentlari yordamida ikki karra nochiziqli kross-diffuziya masalasining sonli yechish sxemasi qurilgan;

qurilgan optimal interpolyatsion formulalar yordamida geosferadagi ayrim dinamik jarayonlarning integro-differensial tenglamalarini sonli yechish sxemasi qurilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, funksional analiz, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi metodlarini qoʻllanilganligi, hamda matematik mulohazalarning qatʼiyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida funksiyaning oʻzi va m – tartibli umumlashgan hosilasi yigʻindisi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosida koʻrsatkichli, trigonometrik va eksponensial – trigonometrik funksiyalarga aniq boʻladigan kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik natural splaynlar qurish hamda diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida koʻrsatkichli, trigonometrik va eksponensial – trigonometrik funksiyalarga aniq boʻlgan optimal kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik natural splaynlar yordamida magnit va issiqlik maydonlarini simmulatsiya qilish, optik tizimlarni modellashtirish, iqtisodiy bashoratlarni tadqiq qilishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Funksiyaning oʻzi va m – tartibli umumlashgan hosilasi yigʻindisi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosida koʻrsatkichli, trigonometrik va eksponensial – trigonometrik funksiyalarga aniq boʻladigan kvadratur va interpolyatsion formulalar, yarim normaga eng kichik qiymat beruvchi koʻrsatkichli–trigonometrik natural splaynlar qurish hamda diskret operatorlar yordamida Gilbert fazolarida funksionallarni yaqinlashtirishni optimallashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gilbertning $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formula 122041800031-8 raqamli “Matematik fizikaning chegaraviy masalalarini yechishning sonli usullari va optimal tarmoq tizimlarini kompyuter orqali loyihalashtirish” amaliy loyihasida murakkab tizimlarda hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlarning matematik modellarini qurishda qo‘llanilgan. (Rossiya Fanlar Akademiyasining Kabardin-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish Instituti 2025 yil 17 iyundagi 01-03/62-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, optimal tizimlarini kompyuter oraqali loyihalashtirishda hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlarning matematik modellarini qurishga imkon bergan;

Gilbertning $W_2^{(m,0)}(0,1)\left(m-toq\right)$ fazosida Sobolev metodidan foydalanib eksponensial-trigonometrik funksiyalarga aniq bo‘lgan optimal kvadratur formulalar F-4-30-raqamli “Ikki marta nochiziqli kross sistemaning konvektiv ko‘chish, o‘zgaruvchan zichlik, manba yoki yutilish ta’siridagi sifat xossalarini tadqiq qilish” mavzusidagi fundamental loyihada ushbu qurilgan kvadratur formulalarning optimal koeffitsiyentlaridan kross-diffuziya sistemalari uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarni sonli yechishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy Universitetining 2025 yil 17 iyundagi 04/11-7602-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish, ikki karra nochiziqli kross-diffuziya masalasining sonli yechish sxemasi va algoritmini qurish hamda sonli natijalarni vizuallashtirish imkonini bergan;

qurilgan optimal kvadratur formulalar 22-11-00064 raqamli “Geosferalardagi dinamik jarayonlarning irsiyatini inobatga olgan holda modellashtirish” amaliy loyihasida geosferadagi ayrim dinamik jarayonlarning integro-differensial tenglamalarini hisoblash uchun foydalanilgan. (Rossiya Fanlar akademiyasi Uzoq Sharq bo‘limining Kosmofizik tadqiqotlar va radioto‘lqinlar tarqalishi institutining 2025 yil 19 iyundagi 264 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada, geosferadagi ayrim dinamik jarayonlarning integro-differensial tenglamalarini sonli yechish sxemasini qurishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 20 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 15 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 44 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan 8 tasi xorijiy va 10 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek elektron hisoblash mashinalari ushun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi uchta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 194 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « $W_2^{(m,0)}(0,1)$ **fazosida interpolyatsion va kvadratur formulalarining xatolik funksionallarini yaqinlashtirish** » deb nomlangan birinchi bobida kvadratur va interpolyatsion formulalarini optimallashtirish masalasi qo‘yilgan. Bu yerda kvadratur va interpolyatsion formulalarining ekstremal funktsiyalari topilgan, ekstremal funksiya yordamida qaralayotgan formulalar xatoliklarining yuqori bahosi topilgan, kvadratur va interpolatsion formulalari xatoliklarining yuqori bahosini koeffitsiyentlar bo‘yicha minimallashtirish uchun Vinner-Xopf tipidagi sistema olingan hamda optimal kvadratur va interpolatsion formulalarning $W_2^{(m,0)}(0,1)$ Gilbert fazosida mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

Quyidagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 \varphi(x)dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\varphi(x_\beta), \tag{1}$$

bunda $C[\beta]$ va x_β $\left(x_\beta \in [0,1]\right)$ lar mos ravishda (1) kvadratur formulaning *koeffitsiyentlari va tugun nuqtalari* deyiladi, φ funksiya esa quyidagicha aniqlangan $W_2^{(m,0)}(0,1)$ chiziqli fazoning elementidir

$$W_2^{(m,0)}(0,1) = \left\{\varphi : [0,1] \to \mathbb{R} \,\middle|\, \varphi^{(m-1)} \textit{ absolyut uzluksiz va } \varphi^{(m)} \in L_2(0,1)\right\}.$$

Ushbu funksiyalar sinfi $W_2^{(m,0)}(0,1)$ quyidagi skalyar ko‘paytma yordamida

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{W_2^{(m,0)}} = \int_0^1 \left(\varphi^{(m)}(x) + \varphi(x)\right)\left(\psi^{(m)}(x) + \psi(x)\right)dx \tag{2}$$

Gilbert fazosi bo‘ladi.

Shuningdek, $W_2^{(m,0)}(0,1)$ Gilbert fazosida

$$\left\|\varphi \middle| W_2^{(m,0)}\right\| = \left\{\int_0^1 \left[\varphi^{(m)}(x) + \varphi(x)\right]^2 dx\right\}^{\frac{1}{2}} \tag{3}$$

(2) skalyar ko‘paytmaga mos yarim norma kiritiladi. Uning nol elementi $\varphi^{(m)}(x) + \varphi(x) = 0$ tenglamaning yechimidir.

Integral va kvadratur yig‘indi orasidagi quyidagi ayirma

$$\int_0^1 \varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\varphi(x_\beta) = (\ell,\varphi) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x)\varphi(x)dx \tag{4}$$

(1) – kvadratur formulaning xatoligi deyiladi, hamda bu ayirmaga

$$\ell(x) = \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\delta(x - x_\beta) \tag{5}$$

ko‘rinishga ega xatolik funksionali mos keladi. Bu yerda $\varepsilon_{[0,1]}(x)$ − [0,1] kesmasining xarakteristik funksiyasi, hamda $\delta(x)$− Dirakning delta–funksiyasi.

Koshi-Shvars tengsizligiga asosan, quyidagi bahoga ega bo‘lamiz

$$|(\ell,\varphi)| \le \left\|\varphi|W_2^{(m,0)}\right\| \left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|.$$

Demak, $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda (1) kvadratur formulaning absolyut xatoligi qo‘shma fazodagi ℓ xatolik funksionali normasi yordamida yuqoridan baholanadi. Bundan quyidagi masalaga ega bo‘lamiz.

1-masala. (1) kvadratur formulaning (5) xatolik funksionali $\left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|$ normasini hisoblash.

(5) tenglikdan ko‘rinib turibdiki, xatolik funksionalining $\left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|$ normasi $C[\beta]$ koeffitsiyentlarga va x_β tugun nuqtalarga bog‘liq.

$W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formula qurish uchun quyidagi masalani yechish kerak bo‘ladi.

2-masala. $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}|W_2^{(m,0)*}\right\| = \inf_{C[\beta]}\left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $C[\beta]$ koeffitsiyentlarini topish.

Xatolik funksionali (5) normasini hisoblash uchun quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi ψ_ℓ ekstremal funksiya tushunchasidan foydalanamiz.

$$(\ell,\psi_\ell) = \left\|\ell \,|\, W_2^{(m,0)*}\right\| \cdot \left\|\psi_\ell \,|\, W_2^{(m,0)}\right\|. \tag{6}$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $\psi_\ell \in W_2^{(m,0)}(0,1)$ funksiyasi (5) tenglik bilan aniqlangan ℓ funksionalining *ekstremal funksiyasi* deyiladi.

$W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazo Gilbert fazosi bo‘lgani uchun chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko‘rinishi haqidagi Riss teoremasidan $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi yagona ψ_ℓ funksiya mavjud

$$(\ell,\varphi) = \langle\psi_\ell,\varphi\rangle_{W_2^{(m,0)}} \tag{7}$$

va $\|\ell\| = \|\psi_\ell\|$, bunda $\langle\psi_\ell,\varphi\rangle_{W_2^{(m,0)}}$ ushbu $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosidagi ψ_ℓ va φ funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi.

(7) tenglamani yechish bilan shug‘ullanamiz. (7) tenglamaning o‘ng tomonini bo‘laklab integrallash orqali quyidagiga ega bo‘lamiz

$$(\ell,\varphi)=(-1)^m\int_0^1\left(\psi_\ell^{(2m)}(x)+\psi_\ell^{(m)}(x)+(-1)^m\psi_\ell^{(m)}(x)+(-1)^m\psi_\ell(x)\right)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\left(\psi_\ell^{(m+s)}(x)+\psi_\ell^{(s)}(x)\right)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1 \quad .$$

Bu yerdan, biz, m sonining toq va juft hollari uchun mos ravishda quyidagi tengliklarga kelamiz: m- toq bo‘lganda

$$(\ell,\varphi)=(-1)^m\int_0^1\left(\psi_\ell^{(2m)}(x)-\psi_\ell(x)\right)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\left(\psi_\ell^{(m+s)}(x)+\psi_\ell^{(s)}(x)\right)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1 \tag{8}$$

va m- juft bo‘lganda

$$(\ell,\varphi)=\int_0^1\left(\psi_\ell^{(2m)}(x)+2\psi_\ell^{(m)}(x)+\psi_\ell(x)\right)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\left(\psi_\ell^{(m+s)}(x)+\psi_\ell^{(s)}(x)\right)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1 \tag{9}$$

ψ_ℓ ekstremal funksiyani topish uchun m ning mos keladigan qiymatlariga qarab (8) yoki (9) ifodalarni ko‘rib chiqish zarurligi aniq.

Avvaliga m - toq bo‘lsin, u holda ψ_ℓ funksiyaning yagonaligini inobatga olib, quyidagi tenglamani olamiz

$$\psi_\ell^{(2m)}(x)-\psi_\ell(x)=(-1)^m\ell(x) \tag{10}$$

bunda

$$\left[\left(\psi_\ell^{(m+i)}(x)+\psi_\ell^{(i)}(x)\right)\right]\Big|_{x=0}^{x=1}=0,\quad i=\overline{0,m-1}\ . \tag{11}$$

chegaraviy shartlar o‘rinli.

Quyidagi isbotlangan

1-Teorema. m - toq bo‘lganda (11) chegaraviy shartlar bilan berilgan (10) tenglamaning yechimi (1) – kvadratur formula ℓ xatolik funksionalining ψ_ℓ ekstremal funksiyasi bo‘lib u quyidagi ko‘rinishga ega

$$\psi_\ell(x)=(-1)^m\ell(x)*G_m(x)+Y_m(x), \tag{12}$$

bunda

$$G_m(x)=\frac{\mathrm{sign}x}{2m}\cdot\left[\sinh(\mathrm{x})+\sum_{k=1}^{m-1}e^{x\cdot\cos\left(\frac{\pi k}{m}\right)}\cdot\cos\left(x\sin\left(\frac{\pi k}{m}\right)+\frac{\pi k}{m}\right)\right] \tag{13}$$

va

$$Y_m(x)=d_0e^{-x}+\sum_{k=1}^{\frac{m-1}{2}}e^{-x\cdot\cos\frac{2\pi k}{m}}\left[d_{1k}\cos\left(x\sin\left(\frac{2\pi k}{m}\right)\right)+d_{2k}\sin\left(x\sin\left(\frac{2\pi k}{m}\right)\right)\right], \quad (14)$$

d_0, d_{1k} va d_{2k} – ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

Bunda ℓ funksional $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda aniqlanganligi uchun quyidagi shartlar bajariladi

$$(\ell,e^{-x})=0\ , \quad (15)$$

$$\left(\ell,e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\cos\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right)\right)=0,\quad k=\overline{1,\frac{m-1}{2}}\ , \quad (16)$$

$$\left(\ell,e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\sin\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right)\right)=0,\quad k=\overline{1,\frac{m-1}{2}}\ . \quad (17)$$

Bu yerdan $m-$toq bo‘lganda (1) – kvadratur formula quyidagi funksiyalarga aniq bo‘ladi deb xulosa qilamiz.

$$e^{-x},\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\cos\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right),\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\sin\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right),\ k=\overline{1,\frac{m-1}{2}}$$

Keyinchalik $m-$juft bo‘lsin, u holda ψ_ℓ funksiyaning yagonaligini inobatga olib, quyidagi tenglamani olamiz

$$\psi_\ell^{(2m)}(x)+2\psi_\ell^{(m)}(x)+\psi_\ell(x)=\ell(x) \quad (18)$$

bunda

$$\left[\left(\psi_\ell^{(m+i)}(x)+\psi_\ell^{(i)}(x)\right)\right]\Big|_{x=0}^{x=1}=0,\quad i=\overline{0,m-1} \quad (19)$$

chegaraviy shartlar o‘rinli.

Quyidagi isbotlangan

2-Teorema. m- juft bo‘lganda (19) chegaraviy shartlar bilan berilgan (18) tenglamaning yechimi (1) – kvadratur formula ℓ xatolik funksionalining ψ_ℓ ekstremal funksiyasi bo‘lib u quyidagi ko‘rinishga ega

$$\psi_\ell(x)=(-1)^m\ell(x)*G_m(x)+Y_m(x), \quad (20)$$

bunda

$$G_m(x)=\frac{\mathrm{sign}x}{2m^2}\cdot\sum_{k=1}^{m}\left[(1-m)e^{x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\cos\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)+\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)+\right.$$
$$\left.+xe^{x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\cos\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)+\frac{2\pi\cdot(2k-1)}{m}\right)\right], \quad (21)$$

va

$$Y_m(x)=\sum_{k=1}^{\frac{m}{2}}e^{-x\cdot\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\left[r_{1k}\cos\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)+r_{2k}\sin\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)\right] \quad (22)$$

bu yerda r_{1k} va r_{2k} - haqiqiy sonlar.

Bunda ℓ funksional $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda aniqlanganligi uchun quyidagi shartlar bajariladi

$$\left(\ell, e^{-x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\cos\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)=0, \quad k=\overline{1,\frac{m}{2}}\ , \tag{23}$$

$$\left(\ell, e^{-x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\sin\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)=0, \quad k=\overline{1,\frac{m}{2}}\ . \tag{24}$$

Bu yerdan $m-$juft bo‘lganda (1) – kvadratur formula quyidagi funksiyalarga aniq bo‘ladi deb xulosa qilamiz.

$$e^{-x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\cos\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right),\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\sin\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right),\ k=\overline{1,\frac{m}{2}}\ .$$

Keyinchalik, (12) va (20) topilgan ekstremal funksiyalaridan foydalanib, ℓ xatolik funksionali normasining kvadrati uchun quyidagi ifoda topilgan

$$\left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|^2=(-1)^m\left[\sum_{\beta=0}^{N}\sum_{\gamma=0}^{N}C[\beta]C[\gamma]G_m(x_\beta-x_\gamma)+\int_0^1\int_0^1 G_m(x-y)dxdy-\right.$$
$$\left.-2\sum_{\beta=0}^{N}C[\beta]\int_0^1 G_m(x-x_\beta)dx\right]. \tag{25}$$

Shunday qilib, 1-masala to‘liq yechildi. Endi biz quyidagi interpolyatsion formulani qaraymiz

$$\varphi(z)\cong P_\varphi(z)=\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta(z)\varphi(x_\beta), \tag{26}$$

bu yerda $P_\varphi(z)=\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta(z)\varphi(x_\beta)$ – interpolyatsion formula va

$$\ell(x,z)=\delta(x-z)-\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta(z)\delta(x-x_\beta)\ . \tag{27}$$

Ushbu interpolyatsion formulaning xatolik funksionali, $P_\varphi(z)$ interpolyatsion formulaning $C_\beta(z)$ – koeffitsiyentlari hamda x_β – tugun nuqlari, $\delta(x)$ esa Dirakning delta funksiyasi, $\varphi(x)$ funksiya $W_2^{(m,0)}(0,1)$ Gilbert fazosining elementidir.

(26) – ko‘rinishdagi interpolyatsion formulaning *xatoligi* deb quyidagi

$$(\ell,\varphi)=\varphi(z)-P_\varphi(z). \tag{28}$$

ayirmaga aytiladi.

Koshi-Shvars tengsizligiga asosan, quyidagi bahoga ega bo‘lamiz

$$\left|(\ell,\varphi)\right|\le\left\|\varphi|W_2^{(m,0)}\right\|\cdot\left\|\ell|W_2^{(m,0)*}\right\|,$$

bu yerda

$$\|\ell\|_{W_2^{(m,0)*}}=\sup_{\varphi,\|\varphi\|\neq 0}\frac{|(\ell,\varphi)|}{\|\varphi\|_{W_2^{(m,0)}}}.$$

Demak, $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda (26) interpolyatsion formulaning absolyut xatoligi qo‘shma fazodagi $\ell(x,z)$ xatolik funksionali normasi yordamida yuqoridan baholanadi. Bundan quyidagi masalaga ega bo‘lamiz.

3-masala. (26) interpolyatsion formulaning $\ell(x,z)$ xatolik funksionali normasini hisoblash.

Ko‘rinib turibdiki, $\ell(x,z)$ xatolik funksionalining normasi $C_\beta(z)$ koeffitsiyentlarga va x_β tugun nuqtalarga bog‘liq. $\|\ell\|$ qiymatini $C_\beta(z)$ koeffitsiyentlar bo‘yicha minimallashtirish masalasi chiziqli masaladir, lekin x_β tugun nuqtalar bo‘yicha esa umumiy holda chiziqli bo‘lmagan masaladir. Bu yerda x_β fiksirlangan tugun nuqtalarda $C_\beta(z)$ koeffitsiyentlari bo‘yicha $\|\ell\|$ qiymatining minimumini topish masalasini ko‘rib chiqamiz.

Quyidagi

$$\left\|\mathring{\ell}\right\|_{W_2^{(m,0)*}} = \inf_{C_\beta(z)} \|\ell\|_{W_2^{(m,0)*}} \tag{29}$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $\mathring{C}_\beta(z)$ koeffitsiyentlarga (agar mavjud bo‘lsa) *optimal koeffitsiyentlar* va ularga mos keluvchi

$$\mathring{P}_\varphi(z) = \sum_{\beta=0}^{N} \mathring{C}_\beta(z)\varphi(x_\beta)$$

interpolyatsion formulaga $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazodagi *optimal interpolyatsion formula* deyiladi.

Shunday qilib, $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda (26) ko‘rinishidagi optimal interpolyatsion formulani qurish uchun quyidagi masalani yechish kerak bo‘ladi.

4-masala. Fiksirlangan x_β tugun nuqtalarda (29) tenglikni qanoatlantiruvchi $\mathring{C}_\beta(z)$ koeffitsiyentlarini topish.

Xatolik funksionali (27) normasini hisoblash uchun quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi U_ℓ ekstremal funksiya tushunchasidan foydalanamiz.

$$(\ell, U_\ell) = \left\|\ell \middle| W_2^{(m,0)*}\right\| \cdot \left\|U_\ell \middle| W_2^{(m,0)}\right\|. \tag{30}$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $U_\ell \in W_2^{(m,0)}(0,1)$ funksiyasi (27) tenglik bilan aniqlangan $\ell(x,z)$ funksionalining *ekstremal funksiyasi* deyiladi.

$W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazo Gilbert fazosi bo‘lgani uchun chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko‘rinishi haqidagi Riss teoremasidan $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi yagona U_ℓ funksiya mavjud

$$(\ell,\varphi) = \langle U_\ell, \varphi\rangle_{W_2^{(m,0)}} \tag{31}$$

va $\|\ell\| = \|U_\ell\|$, bunda $\langle U_\ell, \varphi\rangle_{W_2^{(m,0)}}$ ushbu $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosidagi U_ℓ va φ funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi.

(31) tenglamani yechish bilan shug‘ullanamiz. (31) tenglamaning o‘ng tomonini bo‘laklab integrallash orqali quyidagiga ega bo‘lamiz

$$(\ell,\varphi)=(-1)^m\int\limits_0^1\Big(U_\ell^{(2m)}(x)+U_\ell^{(m)}(x)+(-1)^m U_\ell^{(m)}(x)+(-1)^m U_\ell(x)\Big)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\Big(U_\ell^{(m+s)}(x)+U_\ell^{(s)}(x)\Big)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1.$$

Bu yerdan, biz, m sonining toq va juft hollari uchun mos ravishda quyidagi tengliklarga kelamiz: m- toq bo‘lganda

$$(\ell,\varphi)=(-1)^m\int\limits_0^1\Big(U_\ell^{(2m)}(x)-U_\ell(x)\Big)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\Big(U_\ell^{(m+s)}(x)+U_\ell^{(s)}(x)\Big)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1 \tag{32}$$

va m- juft bo‘lganda

$$(\ell,\varphi)=\int\limits_0^1\Big(U_\ell^{(2m)}(x)+2U_\ell^{(m)}(x)+U_\ell(x)\Big)\varphi(x)dx+$$

$$+\sum_{s=0}^{m-1}(-1)^s\Big(U_\ell^{(m+s)}(x)+U_\ell^{(s)}(x)\Big)\varphi^{(m-s-1)}(x)\Big|_0^1 \tag{33}$$

U_ℓ ekstremal funksiyani topish uchun m ning mos keladigan qiymatlariga qarab (32) yoki (33) ifodalarni ko‘rib chiqish zarurligi aniq.

Avvaliga m - toq bo‘lsin, u holda U_ℓ funksiyaning yagonaligini inobatga olib, quyidagi tenglamani olamiz

$$U_\ell^{(2m)}(x)-U_\ell(x)=(-1)^m\ell(x) \tag{34}$$

bunda

$$\left[\Big(U_\ell^{(m+i)}(x)+U_\ell^{(i)}(x)\Big)\right]\Big|_{x=0}^{x=1}=0,\quad i=\overline{0,m-1}\ . \tag{35}$$

chegaraviy shartlar o‘rinli.

Quyidagi isbotlangan

3-Teorema. m - toq bo‘lganda (35) chegaraviy shartlar bilan berilgan (34) tenglamaning yechimi (26) – interpolyatsion formula $\ell(x,z)$ xatolik funksionalining U_ℓ ekstremal funksiyasi bo‘lib u quyidagi ko‘rinishga ega

$$U_\ell(x)=(-1)^m\ell(x,z)*G_m(x)+Y_m(x)\ , \tag{36}$$

bunda $G_m(x)$ - Grin funksiyasi (13) da aniqlangan va

$$Y_m(x)=d_0(z)e^{-x}+\sum_{k=1}^{\frac{m-1}{2}}e^{-x\cdot\cos\frac{2\pi k}{m}}\cdot\Bigg[d_{1k}(z)\cos\left(x\sin\left(\frac{2\pi k}{m}\right)\right)+$$

$$+d_{2k}(z)\sin\left(x\sin\left(\frac{2\pi k}{m}\right)\right)\Bigg], \tag{37}$$

bu yerda $d_0(z)$, $d_{1k}(z)$ va $d_{2k}(z)$ lar ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

Bunda $\ell(x,z)$ funksional $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda aniqlanganligi uchun quyidagi shartlar bajariladi

$$\left(\ell(x,z), e^{-x}\right) = 0 \ , \tag{38}$$

$$\left(\ell(x,z), e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\cos\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right)\right) = 0, \quad k = \overline{1,\frac{m-1}{2}} \ , \tag{39}$$

$$\left(\ell(x,z), e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\sin\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right)\right) = 0, \quad k = \overline{1,\frac{m-1}{2}} \ . \tag{40}$$

Bu yerdan $m-$ toq bo'lganda (26) – interpolyatsion formula quyidagi funksiyalarga aniq bo'ladi deb xulosa qilamiz.

$$e^{-x},\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\cos\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right),\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}}\sin\left(x\sin\frac{2\pi k}{m}\right),\ k = \overline{1,\frac{m-1}{2}}$$

Keyinchalik $m-$juft bo'lsin, u holda U_ℓ funksiyaning yagonaligini inobatga olib, quyidagi tenglamani olamiz

$$U_\ell^{(2m)}(x) + 2U_\ell^{(m)}(x) + U_\ell(x) = \ell(x) \tag{41}$$

bunda

$$\left[\left(U_\ell^{(m+i)}(x) + U_\ell^{(i)}(x)\right)\right]\Big|_{x=0}^{x=1} = 0, \quad i = \overline{0, m-1} \tag{42}$$

chegaraviy shartlar o'rinli.

Quyidagi isbotlangan

4-Teorema. m- juft bo'lganda (42) chegaraviy shartlar bilan berilgan (41) tenglamaning yechimi (26) – interpolyatsion formula $\ell(x,z)$ xatolik funksionalining U_ℓ ekstremal funksiyasi bo'lib u quyidagi ko'rinishga ega

$$U_\ell(x) = \ell(x,z) * G_m(x) + Y_m(x) \ , \tag{43}$$

bunda $G_m(x)$ - Grin funksiyasi (21) da aniqlangan va

$$Y_m(x) = \sum_{k=1}^{\frac{m}{2}} e^{x\cdot\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}} \cdot \left[r_{1k}(z)\cos\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right) + \right.$$
$$\left. + r_{2k}(z)\sin\left(x\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)\right], \tag{44}$$

bu yerda $r_{1k}(z)$ va $r_{2k}(z)$ - haqiqiy sonlar.

Bunda $\ell(x,z)$ funksional $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda aniqlanganligi uchun quyidagi shartlar bajariladi

$$\left(\ell(x,z), e^{x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}}\cos\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right) = 0, \quad k = \overline{1,\frac{m}{2}} \ , \tag{45}$$

$$\left(\ell(x,z), e^{x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}} \sin\left(x \sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right)\right)=0, \quad k=\overline{1,\frac{m}{2}}\ . \qquad (46)$$

Bu yerdan $m-$ juft bo‘lganda (26) – interpolyatsion formula quyidagi funksiyalarga aniq bo‘ladi deb xulosa qilamiz.

$$e^{-x\cos\frac{(2k-1)\pi}{m}} \cos\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right),\ e^{-x\cos\frac{2\pi k}{m}} \sin\left(x\sin\frac{(2k-1)\pi}{m}\right),\ k=\overline{1,\frac{m}{2}}\,.$$

Keyinchalik, (36) va (43) topilgan ekstremal funksiyalaridan foydalanib, $\ell(x,z)$ xatolik funksionali normasining kvadrati uchun quyidagi ifoda topilgan

$$\left\|\ell(x,z)\middle|W_2^{(m,0)*}\right\|^2=(-1)^m\cdot\left[\sum_{\beta=0}^{N}\sum_{\gamma=0}^{N}C_\beta(z)C_\gamma(z)G_m(x_\beta-x_\gamma)-2\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta(z)G_m\left(z-x_\beta\right)\right].\ (47)$$

Shunday qilib, 3-masala to‘liq yechidi.

Keyin 1.4 – paragrafda $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda optimal kvadratur va interpolyatsion formulalarining $C[\beta]$ va $C_\beta(z)$ koeffitsiyentlari uchun chiziqli tenglamalar sistemalari olingan. Ushbu sistemalar yechimlarining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan. Ushbu sistemalarning yechimi qaraliyotgan formulalarning xatolik funksionali normasining kvadratiga minimum berishi isbotlangan.

Gilbert fazolarida optimal kvadratur va interpolyatsion formulalarni qurishning Sobolev metodi differensial operatorlarning diskret analoglariga asoslangan va optimal koeffitsiyentlarning oshkor ko‘rinishini olishga imkon beradi. Ushbu dissertatsiya ishida $W_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda optimal formulalarni qurish uchun bizga yuqori tartibli differensial operatorlarning mos diskret analoglari kerak bo‘ladi.

« **Yuqori tartibli diskret operator**» deb nomlangan ikkinchi bobi kerak bo‘ladigan m - toq bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}-1$ va $m-$juft bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}+2\frac{d^m}{dx^m}+1$ differensial operatorlarning diskret analoglarini qurishga bag‘ishlangan.

Ushbu

$$D_m[\beta]*G_m[\beta]=\delta[\beta] \qquad (48)$$

tenglamaning yechimi $D_m[\beta], m$ - toq bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}-1$ va $m-$juft bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}+2\frac{d^m}{dx^m}+1$ *differensial operatorlarning mos diskret analogi* deyiladi. Bu yerda $G_m[\beta]$ mos ravishda m - toq bo‘lganda (13) tenglik bilan va $m-$juft bo‘lganda (21) tenglik bilan aniqlangan $G_m(x)$ funksiyalarga mos diskret argumentli funksiya. 2.2–paragrafda m - toq bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}-1$ va $m-$juft bo‘lganda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}+2\frac{d^m}{dx^m}+1$ differensial operatorlarning $D_m[\beta]$ diskret analoglari qurilgan.

Quyidagi teoremalar isbotlangan:

5-Teorema. $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}-1$ differensial operatorning m -toq bo‘lganda (48)-tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m\left[\beta\right]$ diskret analogi quyidagi ko‘rinishga ega

$$D_m\left[\beta\right]=\frac{m}{K}\cdot\begin{cases}\sum\limits_{k=1}^{m-1}A_k\cdot\lambda_k^{|\beta|-1}, & |\beta|\geq 2,\\ 1+\sum\limits_{k=1}^{m-1}A_k, & |\beta|=1,\\ M_1-\frac{K_1}{K}+\sum\limits_{k=1}^{m-1}\frac{A_k}{\lambda_k}, & \beta=0,\end{cases} \tag{49}$$

bunda $K,\,K_1,\,M_1,\,A_k,\lambda_k$ – ma’lum kattaliklar va $|\lambda_k|<1$.

6-Teorema. $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}+2\frac{d^m}{dx^m}+1$ differensial operatorning m -juft bo‘lganda (48)-tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m\left[\beta\right]$ diskret analogi quyidagi ko‘rinishga ega

$$D_m\left[\beta\right]=\frac{m^2}{K^*}\cdot\begin{cases}\sum\limits_{k=1}^{m-1}A_k^*\cdot\tau_k^{|\beta|-1}, & |\beta|\geq 2,\\ 1+\sum\limits_{k=1}^{m-1}A_k^*, & |\beta|=1,\\ M_1^*-\frac{K_1^*}{K^*}+\sum\limits_{k=1}^{m-1}\frac{A_k^*}{\tau_k}, & \beta=0.\end{cases} \tag{50}$$

bunda $K^*,\,K_1^*,\,M_1^*,A_k^*,\tau_k$ – ma’lum kattaliklar va $|\tau_k|<1$.

2.3-paragrafda $\frac{d^2}{dx^2}-1,\ \frac{d^4}{dx^4}+2\frac{d^2}{dx^2}+1,\ \frac{d^6}{dx^6}-1$ va $\frac{d^8}{dx^8}+2\frac{d^4}{dx^4}+1$ differensial operatorlarning $D_m\left[\beta\right]$ diskret analogining ba’zi bir xossalari isbotlangan.

